



## XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: [sirdaryo@exat.uz](mailto:sirdaryo@exat.uz)

2021 йил «26» декабр

VI-29-60-9-0-K/21

Сирдарё вилояти ҳокимлиги

### Sirdaryo viloyatining 2021-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yoʻnalishlari yuzasidan viloyat hokimi Gʻ.Mirzayevning Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga murojaati toʻgʻrisida

Viloyatni 2021-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yoʻnalishlari yuzasidan viloyat hokimi Gʻ.Mirzayevning hisobotini tinglab va muhokama etib, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 103-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-, 25<sup>1</sup>-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi**:

1. Viloyatni 2021-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yoʻnalishlari yuzasidan viloyat hokimi Gʻ.Mirzayevning Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga murojaati hamda “Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-43-sonli qarori ijrosi yuzasidan axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyatini 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni yanada qoʻllab-quvvatlash, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yangi ish oʻrinlari yaratish hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan vazifalar boʻyicha “Chora-tadbirlar” rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimining barcha o‘rinbosarlari, viloyat sektorlar rahbarlari, viloyat boshqarma, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda joylarda murojaatnomada belgilangan vazifalar hamda “Chora-tadbirlar” rejasi ijrosini so‘zsiz ta‘minlashga mas‘ul ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

4. Viloyat, tuman va shahar hokimlari sektor rahbarlari bilan birgalikda:

2022-yilning **1-apreliga qadar** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda PQ-43-sonli qarori ijrosini ta‘minlashda joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining holatini, yangi loyihalarni amalga oshirish zarurati va ularning joylashuvini, shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha keng jamoatchilik fikrini o‘rganish natijasi yuzasidan viloyat hokimligi (tuman, shahar hokimlari) 2022-yil 15-aprelga qadar Xalq deputatlari viloyat Kengashiga (tuman, shahar hokimlari Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga) tavsiyalarini taqdim etish;

viloyat (tuman, shahar) sektor rahbarlari tomonidan hududlardagi loyihalarning amalga oshirilishi holati yuzasidan **har oyda** tegishincha Xalq deputatlari viloyat (tuman, shahar) Kengashlariga hisobotlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlariga:

viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga doir davlat va hududiy dasturlar hamda ular ijrosining borishi haqida o‘z saylov okruglari faollariga mahallabay yetkazib borish;

murojaatnomada qayd etilgan dolzarb masalalarni hal etish hamda barcha vazifalarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi ustidan doimiy monitoring o‘rnatishga alohida e‘tibor qaratish tavsiya etilsin.

6. Viloyat hokimligi matbuot kotibi (Z.Mirrahimov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Esonov)larga ommaviy axborot vositalarida va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni keng yoritib borish topshirilsin.

7. Viloyatni 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash viloyat hokimining tegishli sohalar bo‘yicha o‘rinbosarlariga, nazorat qilish Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi tegishli doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklatilsin.

**Sirdaryo viloyati hokimi**



**G'.Mirzayev**

Халқ депутатлари Сирдарё  
вилоят Кенгашининг  
2021 йил 26 декабрдаги  
VI-29-60-9-0-K/21-сон  
қарорига  
1-илова

**Сирдарё вилоятини 2022-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, тadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan vazifalar bo'yicha**

**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

№	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
1.	Viloyatda 2022-yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish hamda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, aholini turmush darajasini yanada yaxshilash, aholi jon boshiga bo'lgan daromadlarini oshirish. Jumladan, yalpi hududiy mahsulot hajmini 17 trln. so'm hisobiga o'sish sur'atini 108,4 foizga yetkazish; - xizmat ko'rsatish hajmini qariyb 6,5 trln. so'mga yoki 2021-yilga nisbatan 1,5 barobarga oshirish; sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 108,2 foizga oshirish choralari ko'riladi.	1. Viloyatni asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha belgilangan prognoz topshiriqlarini korxonalar hamda tarmoqlar kesimida oyma-oy bajarilishini tahlil qilish; 2. 2022-yilda ishlab chiqarish korxonalarini to'liq quvvatda ishlashini ta'minlash, mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarish bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichlarini oyma-oy tahlil qilib borish; 3. Tuman va shaharlarning istisoslashuvi, tabiiy resurslarini inobatga olib sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish obyektlarini ayniqsa, xalqaro yo'l bo'yilariga va boshqa belgilangan hududlarga tashkil etish istagini bildirgan salohiyatli tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash;	Doimiy har oyning 5-sanasiga qadar	Viloyat hokimining barcha o'rinbosarlari, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, Statistika boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
2.	Viloyatda soliq bazasini kengaytirish, mahalliy byudjetga qo'shimcha manbalar aniqlash va 2022-yilda byudjetga 1,2 trln. so'm tushishini ta'minlash.	1. Viloyatda ro'yxatdan o'tib faoliyat ko'rsatmayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda noqonuniy faoliyat yuritayotgan korxonalarni qonuniylashtirish hisobiga byudjetga mablag'lar undirish; 2. Byudjet oldidagi boqimanda qarzdorliklarni qisqartirish; 3. Dastur doirasida loyihalarni ishga tushirish hisobiga byudjetga qo'shimcha mablag'lar undirish choralari ko'rish;	Doimiy har oyning 5-sanasiga qadar	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari, A.Karimov, Soliq boshqarmasi, Moliya boshqarmasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari

№	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
3.	Bandlik dasturi doirasida viloyat bo'yicha jami 52,6 ming nafar aholi bandligini ta'minlash chorasini ko'rish	1. 23,1 ming nafar doimiy ish o'rinlari (11,9 ming nafar investitsiya loyihalari, 434 ming nafar ijtimoiy infratuzilma, 6,4 ming nafar yangi tashkil etiladigan kichik korxonalar, 4,4 ming nafar bo'sh ish o'rinlariga) hamda 29,5 ming nafar o'z o'zini band qilish (22,2 ming nafar yer maydonlari ajratish, 2 ming nafar ishlab chiqarish kooperativlari, 3,3 ming nafar o'zini o'zi band qilish, 1,9 ming nafar xorijiy davlatlarga ishga joylashtirish) hisobiga bandligi ta'minlash; 2. Ish joylarini tashkil etish va haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish orqali ishsizlik darajasi va norasmiy bandlar sonini kamaytirish.	Doimiy har oyning 5 sanasiga qadar	Viloyat hokimining o'rinbosarlari, A.Karimov, D.Madirimov, Bandlik boshqarmasi, Soliq boshqarmasi, Moliya boshqarmasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
4.	Viloyatda yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar hajmini oshirish, import mahsulotlar hajmini qisqartirish, energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish.	2022-yilda mahalliy lashtirish dasturiga kiritilgan 39 ta loyihalar doirasida 508 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda belgilangan reja ko'rsatkichini 1,5 barobarga oshirish choralari ko'riladi	Doimiy har oyning 5-sanasiga qadar	Viloyat hokimining o'rinbosari D.Madirimov, Viloyat hokimining yordamchisi A.Toshmatov, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
5.	Barcha yo'nalishlar bo'yicha <b>investitsiya loyihalarini</b> amalga oshirish, jumladan muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish (gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minotini yanada yaxshilash), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish.	1. Investitsiya dasturi asosida davlat sherikchiligi asosida 4 ta <b>maktabgacha ta'lim muassasalari</b> tashkil etish hamda rekonstruksiya qilish; 2. Viloyat bo'yicha 8 ta <b>maktablarni</b> rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash; 3. Viloyat bo'yicha 3 ta <b>tibbiyot muassasalarini</b> rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash;	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosarlari A.Karimov, A.Xojimatov, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
6.	<b>Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarda</b> yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni amalga oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish.	Sanoat loyihalarini amalga oshirish va belgilangan ish o'rinlari yaratish.	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosarlari, A.Karimov, D.Madirimov, Investitsiya boshqarmasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
7.	<b>Kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik va kasanachilikni</b> qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, <b>"Monomarkazlar"</b> va mahalla guzarlarida aholini kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikka jalb qilish.	1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, korxonalarining <b>yashovchanlik ko'rsatkichini</b> oshirish; 2. Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va aholi tadbirkorligiga barcha moliyalashtirish mablag'lari hisobidan tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari ajratilishini ta'minlash	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosarlari A.Karimov, O'.Mamadaminov, Bandlik boshqarmasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari

№	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
8.	Davlat ulushi mavjud korxonalarni xususiy lashtirish.	Viloyatda davlat aktivlari "E-IJRO-AUKSION" elektron auksion savdo maydonchasiga chiqarilgan. Mazkur obyektlarni sotish natijasida qo'shimcha 39,0 mlrd. so'mlik investitsiyalar va 500 dan ortiq ish o'rinlari yaratish.	2022-yilda	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Karimov, Aktivlarni boshqarish boshqarmasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
9.	Raqamli texnologiyalarni joriy qilish, jumladan yagona interaktiv xizmatlar portali orqali ko'rsatiladigan xizmatlar, IT parklar tashkil etish.	"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida Sirdaryo viloyatini 3 yillik raqamli transformatsiya qilish bo'yicha umumiy qiymati 31,1 mlrd. so'mdan ortiq 121 ta chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Jumladan, namunaviy hudud sifatida tanlangan Boyovut va Xovos tumanlari iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohasini raqamlashtirish bo'yicha 2020-2022-yillarda mo'ljallangan loyihalarni amalga oshirish.	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosarlari, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
10.	Ekspart hajmini oshirish, yangi mahsulotlar eksportini yo'lga qo'yish va yangi bozorlarga kirib borish.	1. Ekspartbop mahsulotlar nomenklaturasi va eksport geografiasini kengaytirish. 2. Ekspart salohiyatini oshirish maqsadida 2022-yilda 295 mln. dollar eksport prognozini bajarish	2022-yil yakuniga qadar	Viloyat hokimining o'rinbosari D.Madirimov, Investitsiya boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
11.	"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari ijrosini ta'minlash.	Viloyatdagi 21 ta mahallalar "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturiga kiritilib, undagi 13800 ta xonadonda yashovchi 77 mingdan ortiq aholining yashash sharoiti yaxshilanadi.	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosarlari, A.Karimov, A.Xojimatov, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
12.	Yangiyer shahrida jami 16 gektar yer maydonida "Yangi O'zbekiston" massivi barpo etilishi belgilangan. Ishlab chiqilgan bosh rejaga asosan? jami 50 ta 5 qavatli 1000 xonadonli turar-joy binolari va infratuzilma obyektlarini bosqichma-bosqich barpo etish	1. 2022-yilda 20 ta 5 qavatli 400 xonadonli turar joy binosi shundan M-34 avtomobil yo'li bo'yida 9 ta uy-joylarning 1 qavatida savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari bilan birga, 25 o'rinli mehmonxona, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish majmualari, mahalla markazi, ekobozor, kovorking markazlari qurish	2022-2024-yillarda	Viloyat hokimining o'rinbosarlari, A.Karimov, A.Xojimatov, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
13.	"Temir daftar"ga kiritilgan oilalar, ularni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikdan chiqarish choralarini ko'rish, "Ayollar" va "Yoshlar" daftarlardagi fuqarolarga yordam ko'rsatish.	"Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga 10130 nafar kiritilgan fuqarolarga 41 mlrd. so'm mablag' yonaltiriladi;	Doimiy	Viloyat hokimining o'rinbosarlari A.Karimov, O'.Mamadaminov, O.Nosirov, Bandlik boshqarmasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari

№	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
14.	<b>Qishloq xo'jaligida</b> , jumladan chorvachilik sohasida qo'shilgan qiymatni ko'paytirish, hosildorlik va mehnat unumdorligini oshirish, foydalanishdan chiqqan yerlarning qayta foydalanishga kiritish, aholi tomorqalaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining saqlash quvvatlarini tashkil etish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish.	1. Dehqonchilikni kompleks rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligini yanada yaxshilash bo'yicha klasterlarni tashkil qilish, ilg'or intensiv agrotexnologiyalarni, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash va birlamchi qayta ishlash usullarini joriy etish 2. Chorvachilik sohasida chorva va parrandalar sonini, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, nasldor chorvachilik xo'jaliklarini tashkil etish, naslchilik ishini takomillashtirish hamda intensiv usullarda baliq yetishtirishni ko'paytirish.	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosari A.Ergashev Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
15.	<b>Suv resurstaridan oqilona foydalanish</b> , irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish, suv tejankor texnologiyalarni joriy etish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, zamonaviy axborot - kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish.	Viloyatda 26 ming gektar, shundan 20 ming gektar paxta, 3 ming gektar bog', 3 ming gektar g'alla yoki o'tgan yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko'p ekin maydonlarda suv tejankor texnologiyalari hamda 19,5 ming gektar yer maydonlarini lazerli tekislash joriy etiladi	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosarlari A.Karimov, A.Ergashev, Qishloq xo'jaligi boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
16.	Aholini <b>ichimlik suvi</b> bilan ta'minlanish darajasini oshirish, suv yo'qotishlar darajasini qisqartirish, aholi punktlarida ichimlik suv va oqova suv ta'minotini yaxshilash, jumladan quduqlardan suv chiqarish yo'li bilan ta'minlash borasidagi ishlarni amalga oshirish.	Respublika byudjetidan ajratiladigan 41 mlrd. so'm mablag'lar hisobiga 10 dona yangi suv inshootini qurish, 14 donasini rekonstruksiya qilish hamda 171 km. suv quvurlari tortiladi.	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosari A.Xojimatov, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
17.	Qishloq joylarda infrastrukturani rivojlantirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda ijtimoiy soha obyektlarini tashkil etish	Jahon bankining Halqaro taraqqiyot va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankidan ajratiladigan 10 mln. AQSH dollar mablag'lar natijasida 8 ta umumta'lim maktabi, 10 ta ta'lim, 1 ta tibbiy muassasa, 16 km. toza ichimlik suvi tarmog'i hamda 9 km.ga yaqin ichki yo'llarni ta'mirlash va qurish 1 ta drenaj tizimini rekonstruksiya qilish	Doimiy	Viloyat hokimining o'rinbosarlari A.Karimov, A.Xojimatov, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
18.	<b>Maktabgacha ta'lim</b> muassasalari qurish, rekonstruksiya bo'yicha ishlar, jumladan oilaviy, xususiy va davlat-xususiy sheriklik asosidagi muassasalarni barpo etish, 6 yoshgacha bo'lgan bolalar qamrovi darajasini oshirish, shuningdek qishloq joylarida sharoitlar yaratish.	<b>Maktabgacha ta'lim</b> muassasalarida zarur shart-sharoit yaratish va 4 ta davlat-xususiy sherikchiligi asosida, 106 ta oilaviy maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etiladi natijada maktabgacha ta'limga qamrov 85 foizga foizga yetkazish.	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosari O.Nosirov, Maktabgacha ta'lim tashkiloti, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
19.	<b>Xalq ta'limi</b> tizimida islohotlarni davom ettirish, jumladan rekonstruksiya qilingan umumta'lim maktablari, yangi qurilgan va davlat-xususiy sheriklik asosidagi obyektlar, moddiy-texnika bazasini yaxshilash, o'qituvchilar orasida oliy ma'lumotli o'qituvchilar salmog'ini oshirib borish	Dasturda belgilangan chora-tadbirlar asosida ishlarni tizimli tashkil etish	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosari O.Nosirov, Xalq ta'limi boshqarmasi,
20.	<b>Oliy ta'lim</b> muassasada xorijiy oliy ta'lim muassasalari dasturlari asosida o'qitishni tashkil qilish va xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb qilish, xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor - o'qituvchilar, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, talabalar, shundan xorijiy talabalar uchun shart-sharoitlar yaratish.	Guliston davlat universitetida dasturlar asosida o'qitishni tashkil qilish va xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb qilish, xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, talabalar, shundan xorijiy talabalar uchun shart-sharoitlar yaratish.	Doimiy	Viloyat hokimining o'rinbosari O.Nosirov, Guliston davlat universiteti

№	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
21.	Aholini, ayniqsa yoshlarni sport bilan shug'ullanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yangi sport majmualari va maydonchalarini barpo etish, sport turlarini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash, yuqori malakali sportchilar va sport zaxirasini tayyorlash, jahon arenalariga olib chiqish.	1. 2022-yilda davlat dasturi asosida viloyatda 2 ta sport majmualarini barpo etish. 2. Guliston shahrida yoshlar va kattalar o'rtasida sportning aralash jang san'atlari turi bo'yicha "Sirdaryo open" xalqaro turniri hamda bel olish va belbog'li kurash, shuningdek, bahodirlar o'yinlari va tosh ko'tarish sport turlari bo'yicha Markaziy Osiyo chempionatlari kabi yirik sport tadbirlarni o'tkaziladi.	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosari Sh.Isakulov, Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
22.	<b>Yoshlarga</b> oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlarini amalga oshirish, jumladan turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarni rag'batlantirib borish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlashga tavsiya qilish, yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari!" g'oyasi atrofida birlashtirish, iqtidorli yoshlarni yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga ta'lim olish uchun yuborish, xalqaro tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlash, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, ularning intellektual salohiyati va iste'dodini rivojlantirish.	Dastur doirasida 11 ta tuman (shahar) hududlarida yoshlarga oid tadbirlarni tashkil etish	Doimiy	Viloyat hokimining o'rinbosari O.Nosirov, Yoshlar agentligi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
23.	<b>Jinoyatchilik</b> kamaytirish, jumladan huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasida tezkorlikni, jinoyatlar haqidagi xabarlarini o'z vaqtida hisobga olish va ko'rib chiqish, tizimda axborot texnologiyalarining keng joriy etish, qo'yilgan vazifalarni vijdonan va tashabbuskorlik bilan bajaruvchi xodimlarni rag'batlantirish.	<b>Jinoyatchilikni</b> kamaytirishni ta'minlash, tizimda axborot texnologiyalarining keng joriy etilishini ta'minlash.	Doimiy	Viloyat hokimining o'rinbosari, O'.Mamadaminov tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
24.	<b>Madaniyat</b> sohasida muntazam ravishda o'tkaziladigan Xalqaro maqom san'ati anjumani hamda o'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalari va an'analarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish.	<b>Madaniyat</b> sohasida muntazam ravishda tadbirlarni o'tkazilishini ta'minlash.	Doimiy	Viloyat hokimining o'rinbosari, Sh.Isakulov, Madaniyat boshqarmasi, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
25.	<b>Ayollarning</b> jamiyatdagi rolini kuchaytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish.	Jamiyatda <b>ayollarning</b> rolini kuchaytirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.	Doimiy	Viloyat hokimining o'rinbosari O'.Mamadaminov tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari



№	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ma'sullar
26.	<b>Turizm</b> sohasini rivojlantirish, rekonstruksiya qilingan ziyoratgohlar va madaniy meros obyektlari, xorijiy turistlar oqimining ko'paytirish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish, jumladan zamonaviy mehmonxonalar va logistika xizmatlarini barpo etish.	1. Viloyat bo'yicha 25 ta loyihalarni amalga oshirish va 1 000 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishini ta'minlash; 2. Viloyat hududidan o'tuvchi A-373, M-34 va M-39 avtomagistral yo'li bo'yida 10 ta jome masjidlar joylashgan bo'lib, ushbu dargohga keluvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun hunarmandlarimiz tomonidan yaratilgan milliy buyumlar, viloyatimiz tarixini targ'ib etuvchi tarqatma materiallar va esdalik sovg'alari sotuvini, savdo do'konlari faoliyatini yo'lga qo'yilishini ta'minlash.	2022-yilda	Viloyat hokimining o'rinbosari Sh.Isakulov tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari
27.	<b>Mehnat muxojirlarini</b> qaytarish, ularni ish bilan ta'minlash va o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun qulay sharoit yaratish.	Vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijiy davlatga ketayotgan hamda xorijdan qaytib kelgan fuqarolarning bandligini ta'minlash.	Doimiy	Viloyat hokimining o'rinbosarlari, tegishli viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shahar hokimliklari, sektor rahbarlari